



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

(Dastlabki ma'lumotlar)

2019- yil yanvar – dekabr

2019-yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **75,3** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni har 1000 aholiga **10,8** birlikni tashkil qildi.

2019-yilning yanvar – dekabrda **4,6** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,3** martaga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1716 ta, sanoatda 926 ta, qurilishda 364 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 629 ta, yashash va ovqatlanishda 391 ta, tashish va saqlashda 140 ta tashkil etilgan.

2019- yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2018- y. | 2019- y. | (+-) |
|--|-----------------|----------|----------|-------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni: | birlikda | 11815 | 15453 | 3638 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni: | birlikda | 2009 | 4668 | 2659 |
| Kichik tadbirkorlikning ulushlari: | | | | |
| YaHM | % | 77,8 | 75,3 | -2,5 |
| Sanoat | % | 37,1 | 36,3 | -0,8 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | % | 99,7 | 99,5 | -0,2 |
| Investitsiya | % | 48,9 | 65,0 | 16,1 |
| Qurilish | % | 89,9 | 93,3 | 3,4 |
| Savdo | % | 79,3 | 76,7 | -2,6 |
| Xizmatlar | % | 69,0 | 65,2 | -3,8 |
| Yuk tashish | % | 93,8 | 94,5 | 0,7 |
| Yuk aylanmasi | % | 90,9 | 90,5 | -0,4 |
| Yo'lovchi tashish | % | 94,3 | 93,8 | -0,5 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 96,5 | 96,0 | -0,5 |
| Eksport | % | 75,3 | 90,4 | 15,1 |
| Import | % | 95,9 | 70,4 | -25,5 |



2019- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %




2019- yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Urganch shahrida – 897 ta, Urganch tumanida – 627 ta, Xiva shahrida – 412 ta, Xonqa tumanida – 362 ta, Hazorasp tumanida – 359 ta va Gurlan tumanida – 356 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Yangiariq tumanida – 245 ta va Yangibozor tumanida – 238 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

| | 2018- yil yanvar – dekabr | 2019-yil yanvar – dekabr | (+-) |
|------------------------|------------------------------|-----------------------------|-------------|
| Xorazm viloyati | 2009 | 4668 | 2659 |
| Urganch sh. | 542 | 897 | 355 |
| Xiva sh. | 180 | 412 | 232 |
| tumanlar: | | | |
| Bog'ot | 105 | 272 | 167 |
| Gurlan | 100 | 356 | 256 |
| Qo'shko'pir | 137 | 315 | 178 |
| Urganch | 244 | 627 | 383 |
| Hazorasp | 140 | 359 | 219 |
| Xonqa | 153 | 362 | 209 |
| Xiva | 130 | 296 | 166 |
| Shovot | 118 | 289 | 171 |
| Yangiariq | 97 | 245 | 148 |
| Yangibozor | 63 | 238 | 175 |



2019- yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %




2019- yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch shahri - 19,2 %, Urganch tumani - 13,4 %, Xiva shahri - 8,8 %, Shovot tumani - 8,3 %, Xonqa tumani - 7,8 %, Hazorasp tumani - 7,7%, Gurlan tumani - 7,6 %, Qo'shko'pir tumani - 6,7 %. Xiva tumani - 6,3 %ni. Bog'ot tumani – 5,8 %ni. Yangiariq tumani – 5,2 %ni va Yangibozor tumanida – 5,1 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

| | 2018- yil yanvar-dekabr | 2019- yil yanvar-dekabr | (+;-) |
|---|----------------------------|----------------------------|-------------|
| Jami | 2009 | 4668 | 2659 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 224 | 629 | 405 |
| Sanoat | 445 | 926 | 481 |
| Qurilish | 228 | 364 | 136 |
| Savdo | 555 | 1716 | 1161 |
| Tashish va saqlash | 81 | 140 | 59 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha | 216 | 391 | 175 |
| Axborot va aloqa | 35 | 52 | 17 |
| Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 51 | 87 | 36 |
| Boshqa faoliyat turlari | 174 | 363 | 189 |

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar – dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

| | 2018- yil yanvar-dekabr | 2019- yil yanvar-dekabr | Farqi (+-) |
|--------------------|----------------------------|----------------------------|---------------|
| Urganch sh. | 542 | 897 | 355 |
| Urganch tumani | 244 | 627 | 383 |
| Xiva sh. | 180 | 412 | 232 |
| Xonqa tumani | 153 | 362 | 209 |
| Hazorasp tumani | 140 | 359 | 219 |
| Qo'shko'pir tumani | 137 | 315 | 178 |
| Xiva tumani | 130 | 296 | 166 |

2019- yil yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p salmog'i Urganch shahrida – 897 ta.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga*



2019- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari



2019- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 25,6 birlik, Xiva shahrida 16,4 birlik, Urganch tumanida 12,6 birlik. Yangiariq tumanida 12,2 birlik, Xiva tumanida 11,4 birlik, Yangibozor tumanida 11,2 birlik, Gurlan tumanida 9,7 birlik, Xonqa tumanida 8,7 birlik, va Hazorasp tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,7 birlikka to'g'ri keldi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Urganch shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Hazorasp tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi, yanvar - dekabr holatiga, %

2019- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,3 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - dekabrda 77,8 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2019- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|-----------------|--------|----------|-----------|--------------|
| Xorazm viloyati | 36,3 | 93,3 | 65,2 | 65,0 |
| Urganch sh. | 56,6 | 92,2 | 38,3 | 31,6 |
| Xiva sh. | 98,7 | 98,3 | 88,9 | 61,6 |
| tumanlar: | | | | |
| Bog'ot | 70,4 | 95,4 | 96,4 | 80,8 |
| Gurlan | 62,4 | 100,0 | 98,3 | 79,5 |
| Qo'shko'pir | 47,0 | 92,3 | 94,4 | 78,5 |
| Urganch | 80,5 | 88,5 | 82,9 | 72,5 |
| Hazorasp | 5,0 | 99,9 | 93,5 | 72,7 |
| Xonqa | 53,7 | 82,7 | 91,6 | 89,4 |
| Xiva | 99,5 | 92,6 | 93,4 | 65,3 |
| Shovot | 61,3 | 100,0 | 96,5 | 74,0 |
| Yangiariq | 50,2 | 100,0 | 97,0 | 89,8 |
| Yangibozor | 86,0 | 93,1 | 97,4 | 85,5 |

1
Xizmatlar sohasi

Gurlan tumani-98,3 % ni, Yangibozor tumani 97,4 % ni, Yangiariq tumani 97,0 % ni, Shovot tumani 96,5 %ni, Bog'ot tumani 96,4 % ni tashkil etdi.


2
Qurilishda


Gurlan, Shovot, Yangiariq tumanlari 100,0 % ni, Hazorasp tumani 99,9 % ni va Xiva shahri 98,3 % ni tashkil etdi.

3
Sanoat sohasida


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Xiva tumani 99,5 % va Xiva shahri 98,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019-yilning yanvar-dekabrida




Kichik tadbirkor sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport (tovar, xizmatlar)ning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushini Yangibozor, Yangiariq, Bog'ot, Xiva, Qo'shko'pir va Gurlan tumanlarida - 100,0% Xonqa tumanida - 96,9 %, Hazorasp tumanida - 95,0%, Shovot tumanida – 92,1%, Xiva shahar - 83.3%,Urganch shahar – 78,5% eng past ko'rsatkich Urganch tumanida – 70,5%ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan import (tovar, xizmatlar)ning, jami import hajmidagi ulushi, %


2019- yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng yuqori ulushi Yangibozor, Qo'shko'pir, Gurlan va Xiva sh. – 100,0 %, Xiva va Bog'ot tumanida – 99,8 %, Urganch shahrida – 98,4 %, Yangiariq tumanida – 95,7 %, Xonqa tumanida – 90,7 %, Urganch tumanida – 89,5 %, va Shovot tumanida – 28,1%. Hazorasp tumanida esa eng past ko'rsatkich - 26,0 %ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (1089,0 mlrd. so'm), Xonqa tumani (275,6 mlrd. so'm), Yangibozor tumani (255,9 mlrd. so'm) Gurlan tumani (234,8 mlrd. so'm) va Urganch tumaniga (229,2 mlrd. so'm) to'g'ri keladi. Qo'shko'pir tumanida (92,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2019- yil yanvar - dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva tumani (99,5%), Xiva sh. (98,7%), Yangibozor tumani (86,0%), Urganch tumani (80,5%), Bog'ot tumani (70,4%), Gurlan tumani (62,4%), Shovot tumani (61,3%), Urganch sh. (56,6%), Xonqa tumani (53,7%), Yangiariq tumani (50,2%) va Qo'shko'pir tumanida (47,0%)ni tashkil etdi. Hazorasp tumanida (5,0%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



2019- yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (1143,2 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (708,3 mlrd. so'm), Urganch tumani (559,6 mlrd. so'm), Gurlan tumani (548,3 mlrd. so'm), Xonqa tumani (391,5 mlrd. so'm), Yangiariq tumani (344,2 mlrd. so'm) va Shovot tumaniga (325,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



2019- yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi: Urganch shahri (526,4 mlrd. so'm), Xiva tumani (346,3 mlrd. so'm), Urganch tumani (218,2 mlrd. so'm), Xonqa tumani (208,3 mlrd. so'm), Shovot tumani (173,1 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (153,3 mlrd. so'm) hamda Yangibozor tumani (150,7 mlrd.





2019- yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (1100,6 mlrd. so'm), Urganch tumani (376,1 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (325,1 mlrd. so'm), Xonqa tumani (261,9 mlrd. so'm) va Gurlan tumaniga (247,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **636** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2019- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 6,9 % (ta.), sanoatda – 17,3 % (ta), qurilishda – 11,2% (ta), savdoda - 33,6%(ta), xizmatlar sohasida – 31,0 % (ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2019 - yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qulay iqtisodiy ahvol yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ularning bahosi 3,0 punktga, qurilish korxonalari mos ravishda 10,3 punktga, xizmatlar sohasida 2,4 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, barcha kuzatilgan korxonalarda umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish korxonalari mos ravishda 2,5 punktga, xizmatlar sohasida (3,0 punktga) hamda punktga o'sdi.



Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarining 2019- yil III va IV choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 1,0 punktga oshdi.


Shu bilan birga, boshqa faoliyat korxonalari o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida iqtisodiy faoliyatning sanoat sohasida 4,8 punktga savdo sohasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,9 punktga iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019- yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash, %



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 - yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan korxonalari ulushi sanoat sohasida 0,1 punktga va savdo sohasida 5,5 punktga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi sanoat va xizmatlar sohasida 0,1 punktga kamaydi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019- yil III va IV choraklardagi iqtisodiy ahvolidagi yaqin uch oyda baholanishi %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilangan sanoat sohasida 7,3 punktga, qurilish sohasida 13,5 punktga, savdo sohasida 6,7 punktga va xizmatlar sohasida 4,9 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda savdo sohasi 6,7 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarini 9,0 punktga, sanoat korxonalarini 7,3 punktga, xizmatlar sohasi 4,9 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyati yomonlashishini kutayotgan korxonalar savdo sohasida 0,4 punktga kamaydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2018 – 2019- yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolidan yaqin uch oyda baholanishi,%






2019 - yil IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi. Unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 67 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 14 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 20,9%), qurilish – 5 ta (7,5%), savdo – 24 ta (35,8%) va xizmatlar – 6 ta (22,4%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 9 ta (13,4%).

2019- yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi






2019 - yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 - yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 - yilning IV choragida qulay iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari korxonalarida sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 31,8 punktga, sanoatda 14,9 punktga, qurilishda 50,0 punktga, savdoda 21,2 punktga, xizmatlar 24,2 punktga barcha faoliyat turlari korxonalarida sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida shu yilning III choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi o'sishi kuzatilmadi.



2019- yil III va IV choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 - yilning IV choragida 2018 - yil IV chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida 2018 - yil IV chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushi kamaydi.



2018 - 2019- yillar IV chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy ahvolini baholash, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 - yilning IV choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilashga ishongan qurilish korxonalari ulushi - 50,0 punktga, xizmatlar sohasi korxonalari ulushi - 9,2 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan korxonalari sanoatda - 2,3 punktga, savdoda - 1,0 punktga ulushi ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi kamayishi kuzatilmadi.



2019 - yil III va IV choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



III chorak IV chorak III chorak IV chorak III chorak IV chorak III chorak IV chorak III chorak IV chorak

● yaxshilanish ● o'zgarishsiz ● yomonlashish

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 - yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 11,1 punktga, qurilish korxonalari 14,3 punktga oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblaydigan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 13,7 punktga, sanoatda 25,1 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi kamayishi kuzatilmadi.

2018 – 2019 - yil IV choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

